

Bizning rasm chizishdagi yordamchilarimiz



Bugun bizda **birinchi rasm darsi**. Biz **rasm chizamiz, bo'yaymiz, ijod qilamiz** va **tasavvur olamiga sayohat qilamiz**. Rasmlarimiz chiroyli va tartibli chiqishi uchun bizga **maxsus yordamchilar** – rassomchilik jihozlari kerak bo'ladi.

Rasm chizishdagi ish qurollarimiz



Guash – yorqin va quyuq rasmlar chizish uchun.



Akvarel – yengil, shaffof ishlar uchun.



Album – ijodiy ishlar va rasmlarni saqlash uchun.



Mo'yqalamlar, sponjlar, palitra, stakancha va **qog'oz sochiqlar** – bo'yoqlar bilan ishlash uchun.



Flomasterlar – yorqin chiziqlar tortish uchun.



Qalamlar – rasm chizish va bo'yash uchun.



Mumli bo'rlar – rasmlarni yumshoq va mayin chizish uchun.

Yosh rassom uchun qoidalar:

- ✓ O'z ish qurollaringizni **asrab-avaylang**.
- ✓ Saranjom-sarishta **ishlang**.
- ✓ Darsdan keyin ish o'rningizni **yig'ishtirib qo'ying**.
- ✓ Zarur bo'lsa, do'stlaringizga **yordam bering**.
- ✗ Mo'yqalam va qalamlarni duch kelgan tomonga **siltamang**.
- ✗ Parta va daftarlarni **iflos qilmang**.



Rasm darsiga qanday tayyorlanamiz?

- Ishni boshlashdan oldin:
- kiyimimiz kirlanmasligi uchun **fartuk va yengchalarni kiyib olamiz**;
 - stol toza turishi uchun **uning ustiga kleyonka to'shaymiz**;
 - hamma ish qurollarini parta ustiga **tartib bilan joylashtiramiz**;
 - **shoshmasdan** ishlaymiz.



Quyoshcha rasmini chizamiz



Quyosh kunimizni
yorug' qiladi.

Kel, uni
birgalikda chizamiz.



Har tong osmonda quyosh chiqadi. U bizga **yorug'lik** va **issiqlik** hadya etadi, atrofni yoritadi va kayfiyatimizni ko'taradi. Quyoshcha **mehribon**, **quvnoq** va **yoqimli** bo'lishi mumkin. Uni, odatda, yuzida tabassum bilan tasvirlashadi.



Bugun o'zingiz **chiroyli quyoshcha** chizishni o'rganasiz.



Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, oddiy qalam, o'chirg'ich,
rangli qalamlar, bo'yoqlar.


Rasm chizish bosqichlari:

- 1. Aylana chizing.** Undan yuqoriga, pastga va yon tomonlarga qarab chiziqlar torting.
- 2. Nurlar va bulutlar qo'shing.** Aylana atrofiga nurlar va bulutlar chizing.
- 3. Fonni bo'yang.** Aylana va nurlarga tegmagan holda osmonni ko'k rangga bo'yang.
- 4. Quyoshni bo'yang.** Aylana va nurlarni sariq rangga bo'yang, olov rang tuslar qo'shing.


Quyosh – Yer yuzini yoritadigan
va barcha tirik mavjudotlarga issiqlik
beradigan **ulkan** va **qaynoq yulduz**.




1



2



3



4

